

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 336.5(545.1)

MAXMUDOV NODIRJON KOZIM O'G'LI

**BANK TIZIMINING LIBERALLASHUVI SHAROITIDA TIJORAT
BANKLARI LIKVIDLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

5A230701 – Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligida
Magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD., dots. U.Sh.Duskobilov

Toshkent – 2019

Magistrlik dissertatsiyasida bank aktivlari va passivlarining muddatiga va miqdoriga ko'ra mutanosibligi o'rganilgan. Shuningdek, tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo'li bilan ularning likvidlilik darajasini ta'minlashning maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslangan. Tijorat banklari likvidliligini oshirish borasidagi muammolar aniqlangan hamda tijorat banklari likvidliligini mustahkamlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

The matchings of bank assets and liabilities on the basis of size and period are studied on dissertation. Also, an improving way of commercial bank regulation mechanism with liquidity are scientifically proved. Problems of liquidity is defined and some recommendations are offered to improve bank liquidity.

Magistrlik dissertatsiyasi «Bank ishi» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.
6-sonli bayonnoma «10» Ushq 2019 yil.

Ilmiy rahbar: PhD., dots. U.Sh.Duskobilov

imzo sana
imzo sana

Magistr: N.K.Maxmudov

«Himoyaga tavsiya etiladi»

«Bank ishi» kafedrasini mudiri,

PhD. U.Sh.Duskobilov

«29» Ushq 2019 y.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi 2019 yil «28» Ushq soat 14.00 da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BANK LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	7
1.1. Tijorat banklari likvidliligini ta'minlash borasidagi nazariy-konseptual yondashuvlar	7
1.2. Bank likvidliligini ta'minlash vositalari va usullari	16
1.3. Bank tizimi likvidliligini ta'minlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	24
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	32
II BOB. TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHNING JORIY HOLATI	35
2.1. O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki likvidliligini mustahkamlashning amaldagi holati tahlili	35
2.2. Tijorat banklari likvidliligini tartibga solishning zamonaviy holati.....	42
2.3. Tijorat banklari likvidliligini mustahkamlash borasidagi muammolari va ularni hal etish yo'llari	50
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	56
III BOB. O'ZBEKISTON BANK TIZIMI LIKVIDLILIGINI MUSTAHKAMLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	58
3.1. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish yo'nalishlari.....	58
3.2. Tijorat banklarining likvidlilik ko'rsatkichlari nazoratini takomillashtirish usullari.....	64
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	71
XULOSA	73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	76
ILOVALAR.....	80

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotida davom etayotgan beqaror jarayonlar bank tizimi likvidliligining zaiflashuviga, aktiv va passiv operatsiyalar nomutanosibligiga va pirovard natijada, milliy iqtisodiyotlarning retsessiya holatiga tushib qolishiga olib kelmoqda. Mazkur holatni dunyoning ko'plab mamlakatlarida, xususan, AQSh, Argentina, Braziliya, Indoneziya, Koreya, Malayziya, Turkiya, Shvetsiya, Yaponiya bank tizimida uchratish mumkin¹. Bu holat, o'z navbatida, bank tizimining likvidlilik darajasini mustahkamlash va uning iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining talablariga asosan, tijorat banklarining mablag'lari etarliligi va likvidlilik darajasi ko'rsatkichini qo'llab-quvvatlash»² eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Binobarin, tijorat banklarining likvidlilik darajasini mustahkamlash bank majburiyatlarini o'z vaqtida yo'qotishlarsiz ta'minlash, aktivlar o'sishini moliyalash, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchli instituttsional hamkori sifatida qarashlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ayni paytda, mazkur ko'rsatkichning zaiflashuvi mamlakat bank tizimining barqarorlik salohiyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatib, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishning keskin pasayib ketishi bilan bog'liq inflyatsiya, inqiroz, ishsizlik, aholi turmush darajasining pasayishi, banklarning vakillik hisobvarag'idagi tasodifan yuzaga keladigan mablag'larning taqchilligi, uzoq muddatli resurslar bazasi barqarorligining susayishi kabi muammoli vaziyatlarga olib keladi.

Mazkur muammoli vaziyatlar ilg'or xorijiy tajribada qo'llaniladigan pul-kredit siyosati instrumentlarini joriy etish asosida tijorat banklarining likvidliligini baholash va tartibga solishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish

¹ <https://www.imf.org> ma'lumotlari.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.